

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## **FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ**

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsija etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

### **Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### **Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

**T.Egamberdiyeva**

Qiz bolalarda ijtimoiy faol shaxs sifatlarini shakllantirishning  
pedagogik xususiyatlari ..... 7

**R.Safarova, M.Abdullayev**

Etnopedagogik qadriyatlar vositasida o'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish  
usullari va metodlari ..... 11

**J.Obidov**

Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarini takomillashtirishning pedagogik  
mazmuni va amaliyotdagi holati ..... 16

**F.Madraximova**

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarda mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb  
pedagogik muammo sifatida ..... 21

**X.Tojiboyeva**

O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning  
pedagogik imkoniyatlari ..... 26

## IQTISODIYOT

**M.Yuldasheva, A.Kolkanatov**

Oilaviy dam olish madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy va madaniy marketing ..... 29

**S.Ismoilova**

Budjet mablag'laridan foydalanishning samaradorligini ifodalaydigan  
ko'rsatkichlar tizimi ..... 34

## FALSAFA, SIYOSAT

**A.Yuldashov**

Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar himoyasini ta'minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy  
asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o'rni ..... 39

**D.Raxmatova**

Qatag'onlik siyosatining aholi ijtimoiy-ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri  
(xx asrning 40-50 yillar misolida) ..... 47

## TARIX

**B.Matboboyev, A.Aloxunov**

Farg'ona vodiysida ilk urbanizatsiya jarayonlari ..... 53

**S.To'raxo'jayev**

Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR da amalga oshirilgan bolalar  
evakuatsiyasi va reevakuatsiyasi tarixidan ..... 58

**R.Ahmedov**

Turkiston ASSRda savodsizlikni tugatish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarning  
yo'lga qo'yilishi (1918-1922-yillar) ..... 63

**Sh.Jumayev**

Farg'ona viloyatidagi katolik jamoalarining faoliyati: tarix va bugungi kun ..... 70

**I.Xo'jaxonov**

Amir Temur davri shaharsozligida turli o'zliklarning namoyon bo'lishi ..... 74

**A.Sarsenbayev, N.Turambetov**

Yevropada islom huquqi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar tahlili (XVIII-XXI) ..... 78

**R.Akbarov**

Ikkinci jahon urushi yillarda o'zbek milliy matbuoti sahifalarida mahalliy  
resurlardan foydalanish masalasi ..... 85

**R.Murodaliyev**

So'ngak mozor-qo'rg'onining davrlashtirilishi haqida ..... 92

**N.Turambetov**

Yozef shaxt - islom huquqshunosligi bo'yicha taniqli yevropalik sharqshunos olim ..... 98

**X.Ergasheva**

1917-1924 yillarda Farg'ona vodiysida neft sanoati tarixi ..... 103

**Sh.Xonimov**

Yoshlar ijtimoiy faolligi va dunyoqarashi shakllanishiga  
globallashuv jarayonlarining ta'siri ..... 109

**TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARDA MEDIASAVODXONLIKNI  
RIVOJLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**РАЗВИТИЕ МЕДИАГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ КАК АКТУАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

**DEVELOPMENT OF MEDIA LITERACY OF STUDENTS IN THE CONDITIONS OF INFORMATION  
EDUCATION AS A CURRENT PEDAGOGICAL PROBLEM**

**Madraximova Feruza Ruzimbayevna<sup>1</sup>**

**<sup>1</sup>Madraximova Feruza Ruzimbayevna**

– Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti prorektori, dotsent

**Annotatsiya:**

*Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda mediasavodxonlikni rivojlanirish haqida so'z boradi. Mediasavodxonlikka ilmiy ta'riflar va uning bugungi kundagi zarurati o'chib beriladi. Muallif pedagogik ma'lumotlarga tayanib, mavjud ilmiy adabiyotlar asosida axborotlashgan jamiyatda mediasavodxonlikni rivojlanirish bo'yicha o'ziga xos jihatlarni o'rgangan va tahlil qilgan.*

**Аннотация:**

*В данной статье речь пойдет о развитии медиаграмотности в информационном обществе. Раскрываются научные определения медиаграмотности и ее необходимость на сегодняшний день. Автор опираясь на педагогические данные, на основе имеющейся научной литературы исследовал и проанализировал специфические аспекты развития медиаграмотности в информационном обществе.*

**Abstract:**

*This article is about the development of media literacy in the information society. Scientific definitions of media literacy and its necessity today are revealed. Based on pedagogical data, the author studied and analyzed specific aspects of media literacy development in the information society based on existing scientific literature.*

**Kalit so'zlar:** Axborot, texnologiya, jamiyat, mediasavodxonlik, ta'lif, talaba, internet, globallashuv.

**Ключевые слова:** информация, технологии, общество, медиаграмотность, образования, студент, интернет, глобализация.

**Key words:** Information, technology, society, media literacy, education, student, Internet, globalization.

**KIRISH BO'LIMI**

Bugungi globallashgan dunyoda axborot tobora o'zining strategik resurs ekanligini ko'rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, xalqaro munosabatlар, xavfsizlik sohalarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Zero, zamonaviy xalqaro munosabatlар nazariyasini tushuntirishda yangi axborot texnologiyalarining roli juda muhim. Axborotga juda ko'p ta'riflar berilgan bo'lib, ularning aksariyatida axborotning aniq maqsadga yo'naltirilganligi va yaxlit tizim sifatida himoyalanganlik holatiga urg'u beriladi.

Hozirgi jamiyatni axborotlashtirish jarayonining asosiyo yo'nalishlaridan biri ta'limdi axborotlashtirishdir. Ta'limdi axborotlashtirish - keng ma'noda ta'lif sohasini metodologiya, o'qitish maqsadlarining psixologik pedagogik tatbig'iiga yo'naltirilgan yangi axborot texnologiyalari vositalarini samarali foydalanish va yaratish (qayta ishslash) amaliyoti bilan ta'minlash sifatida qaraladi [1;32].

**Adabiyotlar tahlili va metodlar**

Axborot texnologiyalarining asosi hisoblangan ommaviy axborot vositalaridan, birinchi bo'lib, matbuot paydo bo'lgan. Uning yaratilishi 1440-yilda I.Guttenberg tomonidan ishlab chiqilgan nashrlarni chop etuvchi uskuna bilan bog'liq. 1609-yilda Germaniyada, 1622-yilda Angliyada, 1631-yilda esa Fransiyada ilk gazetalar paydo bo'ldi [2;30]. Vaqt o'tishi bilan, matbuot jamiyat rivojlanishining voqe-a-hodisalariga ta'sir o'tkaza oladigan vosita sifatida namoyon bo'la boshladidi. Turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida matbuotdan foydalana boshladilar. Bu, o'z navbatida ta'lif jarayonlariga ham ta'sirini ko'rsata boshladidi. Ushbu ta'sirlarni mafkuraviy tahdid sifatida ta'lif muassasalari, xususan, oliy ta'lif tashkilotlari talabalariga salbiy ta'sir qilmasligi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Ushbu holatda jamiyat uchun, ayniqsa yoshlar uchun mediasavodxonlik muhim. Bu, avvalo, axborotga egalik, uni baholash va axloqiy qoidalarga rioya qilgan holda foydalanishning muhimligini anglatadi. Mediasavodxonlik media funksiyalarini tushunish, mazkur funksiyalarni amalga oshirish sifatini baholash va o'z-o'zini ifoda etish, shuningdek, ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etish uchun medialar bilan aqliy ratsional hamkorlikka kirishishga urg'u beradi. Mediasavodxonlik axborot makonida foydalanilayotgan texnologiyalardan qat'iy nazar, o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini ongli ravishda shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq.

G'arb mediashunoslari "mediasavodxonlik" (media literacy) tushunchasini insonga media bilan muloqotda, ularning hayotidagi media mazmunini tushunishda tanqidiy nuqtayi nazar bilan qarashga yordam beradi, deb izoh berishadi. Mediasavodxon inson mediamatnlarga baho berishda tanqidiy va tahliliy yondashuvi, ommaviy madaniyat bilan munosabatda tanqidiy masofada bo'lishi, manipulyatsiyaga qarshilik qilishi kerak [3;232].

«Mediasavodxonlik» — mediamatnlarni sharhlash, tahlil etish va yaratish qobiliyati [4;179].

«Mediasavodxonlik» — turli shakllardagi axborotlarni olish, tahlil etish, baholash va uzatish qobiliyati [5;21].

«Mediasavodxonlik» — mediasavodxon odamni zamonaviy dunyodagi, kodli va reprezentatsion tizimlarda faoliyat yuritayotgan medianing ijtimoiy-madaniy, siyosiy kontekstini tushunishga, mediamatnlarni idrok etish, yaratish, tahlil etish, baho berishga tayyorlash jarayoni [6;94].

«Mediasavodxonlik» — insonlarga audiovizual va bosma matnlarning madaniy ahamiyati, mazmunini tushunishga, yaratishga va baholashga yordam berishga undovchi harakat. Har bir inson mediasavodxon bo'la oladi [7;10].

Mediasavodxonlik o'z ichiga turli tushunchalarni oladi: o'z fikrini erkin bayon etish savodxonligi, yangiliklar savodxonligi, kompyuter savodxonligi, kutubxona savodxonligi, internet savodxonligi, raqamli texnologiyalar sohasidagi savodxonlik, kinosavodxonlik, elektron o'yinlardan foydalanish savodxonligi, televizion savodxonlik, reklama sohasidagi savodxonlikdan iborat. Mazkur tushunchalar o'rtasida bog'liqlik mavjud. Ularning ko'pchiligi turli xil bahslarga sabab bo'lib, u yoki bu foydalanuvchilar hamjamiatining kasbiy konteksti yoki madaniy amaliyotiga qarab turlichqa qo'llanib kelinmoqda.

Mediasavodxonlik insonni kelgusida foydalana olishi uchun keng bilimlar bilan qurollantiradi, demokratik jamiyatda axborot kanallarining faoliyati haqida muhim bilimlar beradi. Axborot xizmatlarining funksiyalari doirasidagi faoliyatini baholash uchun zarur bo'ladi, ushbu funksiyalarni amalga oshirish va asosiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun muhim shart-sharoitlarni tushunishni ta'minlaydi.

O'tgan yillar mobaynida mamlakatimizda ta'limni axborotlashtirish jarayonlari tizimli ravishda amalga oshirildi. Ta'limni axborotlashtirishda birinchi navbatda kompyuter texnikasi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy vositalarini tizimli o'rganish, tashkil etish va foydalanishni; talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, o'quv va metodik ta'minlash; o'qituvchilar tomonidan zaruriy o'quv-metodik ta'minotni yaratish bo'yicha ishlar; axborot texnologiyalarini samarali qo'llanilishidan vujudga kelayotgan yangi imkoniyatlarni hisobga olgan holda o'quv jarayonini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ta'limni axborotlashtirish ta'lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni, ta'lim sohasida ularni yaratish amaliyoti va metodologiyasi bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Ta'limni axborotlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayoni o'qitishdagi tashkiliy shakllar va metodlarning o'zgarishigagina emas, balki undagi yangi metodlarning shakllanishiga ham olib keladi.

Tarixga nazar solsak, ijtimoiy bog'liqliklar natijasida insonlarda ish, siyosiy qiziqish, din va hobbi bo'yicha turli iste'mol predmetlari paydo bo'la boshladi. Inson uchun jamiyatdan uzoqlashish va undan yiroqda bo'lish kabi psixologik hodisa paydo bo'ldi, natijada inson o'z shaxsiy fikrini yo'qta boshladi. Atrofdagilarning unga bergen bahosiga bo'lgan qiziqish o'sib bordi. Inson doimiy ravishda sergak bo'lishga ko'nikdi va doimiy ravishda ijtimoiy fikr dinamikasini kuzatib boradigan bo'ldi. Bora-bora o'zi bilmagan holda, hozirgi kunda muhim bo'lgan narsa va tizimlar borasida rasmiy maslahatlarga ehtiyoji o'sib bordi. Insonning turli joylardan keladigan ma'lumotlar oqimiga bo'lgan talabi tobora oshib bordi, u esa bilib-bilmay uni iste'mol qilinishini hayot uchun muhim deb hisobladi. Tabiiyki, bunday ma'lumotlarni yetkazuvchi subyekt ushbu ma'lumotlarni iste'mol qiluvchininig ustidan

## PEDAGOGIKA

hukmronlik qiladi, buning asosida u o'z manfaatlari yo'llida ijtimoiy fikrning shakllanishiga ta'sir o'tkazadi[3;15]. Shunday qilib, individ jamiyat fikriga muhtoj bo'lib qoldi, bu fikr esa ommaviy axborot va media vositalari tomonidan shakllanib borardi. Ommaviy axborot vositalari shaxsni yaratish va uni parchalashga qodir. Bu borada, avvalo ta'lif jarayonida, ayniqsa oliv ta'lif tizimida faoliyat ko'rsatuvchi professor-o'qituvchilar va tahsil oluvchi talabalarining, mediasavodxonligini shakllantirish zarur.

Bu borada ta'lifni axborotlashtirish jarayonining rivojlanishi, o'quv materiallarining mazmuni va hajmini o'zgarishiga, o'quv kurslari dasturlarini qayta ishlab chiqishga sababchi bo'ladi. Bu esa, o'quv fanlarining mazmuni va strukturasining o'zgarishiga olib keladi.

Bugungi kunda tarqalayotgan axborotlar insonlarning, ayniqsa, yoshlar (jumladan, OTTda tahsil olayotgan talabalar) qatlamini yanada «zamonaviy» bo'lish ruhiyati bilan tengdoshlariga taqid qilishga yetakladi. Shuningdek, insonlarni urf bo'lgan mukammallikka va standart holatlarga yo'naltira boshladi. Buning oqibatida inson turli axborotlarni ommaviy iste'mol g'oyasini betanqid qabul qila boshladilar. Mazkur g'oya OAV va internet ijtimoiy tarmoqlari orqali kirib kelayotgan mentaliltetimizga zid bo'lgan turli salbiy holatlarga ko'nikish yo'li orqali singdiriladi. Bu mafkuraviy tahdidlarning tashqi go'zal va oson qabul qilinuvchi g'oyalari, zamonaviy urf-uslublarining targ'ib etilishi, jiddiy fikrlashlarni talab qilmaydigan, hayot haqiqatlaridan uzoqlashtiruvchi yengil xayoliy ramzlar talaba yoshlarni o'ziga jalb eta boshlaydi.

Ushbu jarayonga oliv ta'lif tizimida talabalarining bilimlarini axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi innovatsion yondashuvlarini rivojlanish zarur. Ta'lif mazmuni va tarkibi, nazorat va o'qitishning tashkiliy shakllari, metodlari haqidagi tasavvurlarning o'zgarishi o'qitish jarayonida xususiy metodikani ham takomillashtirishni taqozo etadi. Ta'lif jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini imkoniyatlaridan foydalanish va shu tufayli o'quv faoliyatining kengayishi, o'qitish vositalari va darsliklarga bo'lgan didaktik talablarining sifatiy o'zgarishlariga olib keladi. Ushbu holatlar ta'lif-tarbiya nazariyasi tarkibiy qismlarining o'zgarishiga, ya'ni pedagogika fani paradigmasing o'zgarishiga olib keladi

### Muhokama

Media vositalaridan foydalanish universal o'quv faoliyatlarini tartibsiz shakllantirishdan maqsadga yo'nalgan va reja asosida shakllantirishga o'tishga yordam beradi. Albatta, universal o'quv faoliyatlarining shakllanganligini baholashda Media keng qo'llanilishi mumkin (va kerak). O'qituvchilar va o'quvchilar o'z faoliyatlarini hamda natijalarini rejalashtiradigan, shuningdek, qayd etadigan axborot-ta'lif muhiti ularni shakllantirish uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Media bilimdonligiga boshlang'ich sinflarda yosh bo'yicha ehtiyojlari va imkoniyatlari doirasida media vositalaridan va axborot manbalaridan foydalanib, o'quv masalalarini hal qilish qobiliyati sifatida o'quv media bilimdonligini ajratib ko'rsatish kerak. Kichik yoshdagagi o'quvchining umumiyy media bilimdonligi uning bir qismi hisoblanadi. Ko'pchilik hollarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini umumiyy media bilimdonligi elementlarini ulardan kattalar kundalik hayotlarida va kasbiy faoliyatlarida foydalanishlari darajasida o'zlashtiradilar.

Mediasavodxonlikni shakllantirish masalasining hal etilishi faqat alohida o'quv fanlari dasturlarida emas, balki, o'quv faoliyatida mohiyati jihatidan bog'liq bo'lgan universal bilimdonlikni shakllantirish bo'yicha dasturlar doirasida qayd etilishi kerak.

Shaxsiy bilim faoliyatlarida fanlarni o'zlashtirishda quyidagi:

- axborotga tanqidiy munosabatda bo'lish va uni tanlab qabul qilish;
- boshqalar shaxsiy hayotlari haqidagi axborotni va axborot natijalarini hurmat qilish kabi xislatlarni shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

O'quv faoliyatlarini o'zlashtirishda quyidagilar ta'minlanadi:

➤ axborot muhitida amalga oshiriladigan faoliyatlar sharoitlari, borishi va natijalarini baholash;

➤ amalga oshirilgan faoliyatlarni o'quvchilarning o'zları, uning o'rtoq'i va o'qituvchi tomonidan baholash hamda ularni tuzatish uchun raqamli axborot muhitida joylashtirilgan faoliyatlar natijalaridan foydalanish;

➤ o'quvchining o'qishdagi yutuqlari raqamli portfoliosini yaratish.

Idrok etish universal o'quv fanlarni o'zlashtirishda media umumta'lum universal faoliyatlarida muhim rol o'ynaydi va pedagog-mutaxassislarining asosiy vazifalari quyidagilar: o'quvchining individual axborot arxivlarida, ta'lif muassasasi axborot muhitida, axborot ta'lif resurslari mintaqaviy

zaxiralarida axborot izlashni o'rgatish; atrof-olam va ta'lif jarayoni haqida axborotlarni qayd etish (yoziб olish), jumladan, audio va video yordamida (o'quvchilarning ishlarini va boshqalar)ni yozib olish, raqamlashtirishni o'rgatish; bilimlarni tizimlashtirish, ularni tashkil etish va konseptual diagrammalar, xaritalar, davr yo'nalishlari va geneologik daraxtlar ko'rinishida taqdim etish; klaviatura vositasida teriladigan matnlardan iborat gipermedia xabarlar, raqamli ma'lumotlar, tasvirlar va tovushlar, xabar elementlarini yaratishni o'rgatish; audioko'rgazmali namoyish etish bilan chiqishlar tayyorlash; haqiqiy va virtual konstrukturlar konstruktiv elementlaridan obyektlar va jarayonlar modellarini shakllantirishdan iborat.

Media kommunikativ o'quv faoliyatlarini shakllantirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Buning uchun quyidagilardan foydalaniлади:

- ✓ gipermedia-xabarlar yaratish;
- ✓ audioko'rgazmali namoyish mahsuloti bilan chiqish;
- ✓ jamoali/shaxsiy kommunikatsiyaning borishini qayd etish (audio-video va matnli yozuv);
- ✓ raqamli muhitda muloqotlar (elektron pochta, chat, videokonferensiya, forum, blog).

O'quvchilarning mediadan to'g'ri foydalana olish malakalarini shakllantirish tizimi faoliyatli yondashish doirasida, o'quv rejasiga barcha fanlarini o'rganish jarayonida sodir bo'ladi, uning natijasi esa, o'quvchilarni o'qitish integrativ natijasidan iborat bo'ladi. Umumlashtirilgan ko'rinishda bu ushbu dasturda va boshlang'ich umumiyligini ta'lif asosiy dasturini o'zlashtirish rejalashtirilgan natijalarida aks ettiriladi.

### Natijalar

Media bilimdonligini universal o'quv fanlari bilan uyg'unlikda shakllantirish dasturiga kiritilishi ta'lif muassasasiga va o'qituvchiga har bir fan xususiyatlarini hisobga olib, turli malakalarni o'zlashtirishda takrorlashlarning oldini olishlariga, turli o'quv kurslari mazmunini birlashtirishni va sinxronlashtirishni amalga oshirishlariga imkon beradi. Axborot bilan ishslash va media vositalaridan foydalaniшни o'zlashtirish fakultativ kurslar, to'garaklar, o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatları mazmuniga ham kiritilishi mumkin.

Mediasavodxonlikni shakllantirishning asosiy omillari va ularning mazmuni quyidagilardan iborat

- Ko'rish organlari, nerv tizimi, faoliyat-tayanch apparati uchun xavfsiz bo'lgan media vositalari bilan ishslash ergonomik uslublaridan foydalaniш.
- O'rnini to'ldiruvchi mashqlarni bajarish. Fayllar va papkalar tizimini tashkil qilish, fayllardagi o'zgarishlarni eslab qolish, fayllar va papkalarni o'zgartirish, faylni chop etish.

- Axborotni yozish, qayd etish. Bevosita kameradan, jumladan, raqamli mikroskop, mikrofon, raqamli datchiklardan axborotlarni kompyuterga kiritish. Tasvirlar, matnlarni skanerdan o'tkazish. Axborotni yozib olish (saqlab qolish). Tasvir ko'rinishida kiritilgan matnni tanib olish. Foto va video-tasvir qurilmalari, axborotni ko'chirish, saqlash moslamalari fleshkartalar bilan asta tanishtirib borish zarur.

- Kompyuterda matn yaratish. Bunda klaviaturadan foydalaniш va uning yordamida matn yaratib, so'zlarining to'g'ri yozilishi, tinish belgilari, orfografiya qoidalarini o'zlashtirib borishlari, shu bilan birga, matnni saqlash, unga o'zgartirish kiritish va boshqalarni o'rganish. Matnni terish bilan ona tili va chet tillarini o'rganishga intilish.

- Grafik ma'lumotlar. Grafik planshetda rasm chizish (tayyor rasmdan nusxa olish, shaxsiy rasmlarni yaratish)ni o'rganish. Oilaviy shajara daraxtini yaratish.

- Matnni tahrir qilish. Matnga o'zgarishlar kiritish: so'z yoki matn qismini o'chirish, almashtirish, o'rniga qo'yish va boshqa amallar vositasida matnni tahrir qilish. Tasvirlarni (slayd-shou), video va audio yozuvlarni tahrir qilish.

- Axborotni qidirish. Kompyuter lug'atlaridan biror tushuncha yoki Internetdan axborotni qidirib topish.

### Xulosa

Bugungi globallashuv davrida oliy ta'lif tashkilotlari talaba yoshlarida mediasavodxonlikni shakllantirish har qachongidan ham muhim. Ushbu jarayonda mediata'lif muhim hisoblanib, barcha ta'lif muassasalariga buni kiritish maqsadga muvofiq. Mediasavodxon talaba, avvalo, mediamatnlarga baho berishda tanqidiy yondashadigan, g'oyaviy tahdidlarni vaqtida anglay oladigan va ularga tanqidiy fikrda bo'lishi bilan manipulyatsiyaga qarshilik qila oladi. Shu o'rinda dars jarayonida mediadan foydalaniшda pedagog-mutaxassislar talabaning tabiiy motivatsiyasi, ta'lif maqsadlari; media bilimlarini o'zlashtirish natijalarini nazorat qilib borish; fan sohasi bo'yicha

## PEDAGOGIKA

mediadan foydalanish samaradorligini oshirish; fan sohasi bo'yicha o'zlashtirishni baholab borishda muhim hisoblangan raqamlı portfolioni shakllantirishga e'tibor qaratishlari lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. R.Hamdamov, U.Begimqulov, N.Tayloqov. Ta'limda axborot texnologiyalari. «O'zbekiston Mnlly Ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti -Toshkent-2010. – 32 bet.
2. Федотова Л.Н. Социология массовой коммуникации. СПб., 2003. С. 30.
3. <sup>1</sup> Duncan, B. (Ed.) (1989). Media Literacy Resource Guide. Toronto: Ministry of Education of Ontario, Publications Branch, the Queen's Printer, 232 p.
4. <sup>1</sup> Worsnop, C. M. (1994). Screening Images: Ideas for Media Education. Mississauga: Wright Communication, 179p.
5. <sup>1</sup> Kubey, R. (1997). Media Education: Portraits of an Evolving Field. In: Kubey, R. (Ed.) Media Literacy in the Information Age. New Brunswick & London: Transaction Publishers, p.21.
6. <sup>1</sup> International Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences, 2001, p.94
7. <sup>1</sup> Aufderheide, P., Firestone, C. (1993). Media Literacy: A Report of the National Leadership Conference on Media Literacy. Queenstown, MD: The Aspen Institute, p.10.
8. Котюрова М. П., Попова Н. Ю. Созидание/разрушение личности как следствие коммуникативных установок в современных газетных текстах // Средства массовой информации в современном мире. Тезисы научно-практической конференции. СПб., 1999. С. 15.